

"BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH"

Toshkent viloyati Parkent tumani

30-maktab boshlang'ich sinf o"qituvchisi

Saypiyeva Naima Sirojiddinovna

Annotatsiya: Ushbu metodda boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llash mumkin bo'lgan zamonaviy metod turlari keltirilgan bo'lib, darsda bulardan foydalanish samarali natijalarni beradi.

Kalit so'zlar: metodika, interfaol, metod, " klaster", " aqliy hujum"...

Kirish

Mamalakatimizda matematik savodxonlikni oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida qator chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 - yil 25 fevraldagi 133-F sonli farmoyishi asosida 2019 - yil 18-19 aprel kunlari Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar, mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. Ushbu ilmiy-amaliy anjumanda boshlang'ich ta'lim tizimida isloh qilinishi kerak bo'lgan muammolar sanab o'tildi. Shunday muammolardan biri bu matematika fanini boshlang'ich sinflarda samarali tashkil etish, interfaol metodlarni qo'llash orqali zamonaviy ta'limni yo'lga qo'yib, o'quvchilarni nafaqat Respublika balki chet ellarda bo'ladigan fan olimpiadalarida ishtiroki va g'alabasini ta'minlashdan iboratdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2020 yil 7- maydagi " Matematika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish" to'g'risidagi qarori ham ushbu sohaga nisbatan e'tiborni kuchaytirdi va quyidagilar ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi:

- ta'lim va ilmiy muassasalar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish
- matematika fanlarini o'qitish sifatini oshirish

Shu yo'nalishlar asosida ushbu metodik tavsiyada boshlang'ich sinflarning matematika darslarida zamonaviy metodlarni qo'llash orqali darsni samarali tashkil etish bo'yicha ma'lumotlar yoritib beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak. «Metodika» grekcha so'z bo'lib, «metod» degani yo'l demakdir. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimsiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadqiq qiladi. Quyida matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini ko'rib chiqamiz.

Fikriy hujum, metodi.

Mazkur metod o'quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

6x6x6, metodi.

6x6x6, metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6

nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgachi o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Ushbu texnologiya 20 minut davomida bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1 bosqichda:

- o'qituvchi dars boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo'yib chiqadi.

2 bosqichda:

- o'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda quyidagicha yo'l tutish mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obxekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delgfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. O'quvchilarga kema, to'lqin, baliq, delgfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlab olgan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3 bosqichda:

- o'quvchilar joylashib olganlaridan keyin o'qituvchi dars mavzusini e'lon qiladi va guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Munozara uchun maxlum vaqt belgilanadi. Munozara tashkil etiladi.

4 bosqichda:

- o'qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan

berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal qilinganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.

5 bosqichda:

- munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bitta vakil bo'lishi inobatga olinadi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng aniq belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlarga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradila

" Sehrli saroy, o'yini

Didaktik topshiriq: to'g'ri va xatosiz hisoblashga o'rgatish, kompyuter saboqlaridan ogoh qilish.

O'yin topshirig'i: maktab ilm olish dargohi ekanligi haqida tushuncha berish.

O'yin bayoni: Bor ekanda, yo'q ekan, qadim zamonda bir ona bo'lgan ekan. Uning uquvsiz bir o'g'li bor ekan. O'g'li yeti yoshga to'lganda onasi uni bir saroyga boshlab boribdi. U oddiy saroy emas, balki sehrli saroy ekan. Ular saroyga yaqinlashib kelishibdi. Saroyning katta eshiklari bor ekan. Uning derazalari ko'p, xonalari yorug', yo'laklari uzun ekan. Shunda onasi o'g'luga: «Bolaginam, men seni mana shu saroyga olib keldim. Sen bu saroyda 9 yil yashaysan. Undan keyin esa boshqa eshikdan chiqasan, bu yerga kelganday emas, balki butunlay boshqa holatda bo'lasan. Sen katta bo'lib qolasan, chiroyli va aqlli bo'lib yetishasan, ko'p narsani biladigan bo'lasan», debdi.

Bolalar bu qanday saroy ekan-a?

Bu maktab, ilm olish dargohi.

Sehrli saroyning ichkarirog'iga kirib borsak, bolalarning aqlini charxlovchi matematika faniga duch kelamiz. Matematika fanini o'rganishdan maqsad to'g'ri va

xatosiz hisoblashni egallash bilan bir qatorda kompyuter saboqlaridan ogoh bo'lishdir. Bilimdon, zukko, komil insonlarni yetkazib berishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. Sehirli saroy, didaktik usuli orqali maktabda ilk qadam qo'ygan boshlang'ich sinf o'quvchilarda maktabga, ilm olishga muhabbat motivatsiyasi shakillantiriladi.

Quvnoq vagonlar yoki poyezd, o'yini

Didaktik topshiriq: O'quvchilarning arifmetik amallarni bajarishlari jarayonida yo'l qo'yiladigan xatoliklarni bartaraf etishga o'rgatish.

O'yin topshirig'i: Topshiriqlarni doiraviy misollar yechish orqali o'quvchilarning bilimini mustahkamlash.

O'yin bayoni:

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha savol beradi:

Siz qanday transportlarni bilasiz?

Javob: avtobus, tramvay, trolleybus, poyezd, metro, yengil mashinalar.

O'qituvchi: Juda to'g'ri javob qildingiz, endi biz sizlar bilan «Quvnoq vagonlar» o'yinini o'ynaymiz. Bu o'yinni turlicha o'tkazish mumkin.

1- topshiriq: Ko'rgazmali qurolida ko'rsatilgan misollarning javobini topish lozim.

$$17-2=15, 15+1 = 16, 16 \square 8 = 8, 8 + 9=17 \quad 17 + 0=17$$

$$18 + 2 = 20, 20-5=15, 15 + 4=19, 19-11=8 \quad 8+10=18$$

Misollarning javobini topganlaridan so'ng uning qiziqarli tomonini topishga da'vatetiladi. Qiziqarliligi shundaki, o'quvchilar birinchisining javobi, ikkinchisining boshlanishi \square zanjir,ga o'xshash ekanligiga iqror boladi.

2- topshiriq: O'quvchilarning oldiga misol yozilgan kartochka yopishtirib qo'yiladi. U misollarning javobini tez va chaqqon topgach, o'quvchilar kim-kimdan

keyin turishini bilib oladilar. Bir o'quvchi paravoz, qolganlari vagonchalar bo'lib ketma-ket turib olishlari kerak. Xato qilgan o'quvchilarga yordam beriladi. Shu tariqa o'yin bir necha marta takrorlanadi.

3-topshiriq: Yuk tashuvchi poyezdlar vagonlariga sabzavotlar, mevalar yuklab, ularni bir shahardan ikkinchi shaharga jo'natish mumkin.

O'quvchilar misollarning javobini topib, necha kilogramm jo'natilayotganini chaqqonlik bilan aytib berishlari lozim. Bu bilan bolalarning massa o'lchovlari haqida olgan bilimlari mustahkamlanadi.

Zakovatli zukko, metodi.

Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. Zakovatli zukko, metodi o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z bilimlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

Charxpalak, metodi.

Charxpalak, texnologiyasidan o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo'lim tugatilganidan keyin, o'tilgan mavzularni o'zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazishda foydalanish mumkin. Mashg'ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo'ladi. Qolaversa, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o'rganishda ham asqotadi. Klaster, metodi. Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga

ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster, metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zinama-zina, metodi. Zinama-zina, texnologiyasidan foydalanish darsning yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Mazkur usuldan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka yoki kichik guruhlariga bo'lingan holda foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining qo'ygan vazifasiga qarab belgilanadi. Ahamiyatli jihati, sinfdagi har bir o'quvchining bilimni individual baholashda Zinama-zina, usuli qo'l keladi. Qolaversa, vaqtni tejashga yordam beradi. Quyida ikki o'quvchini bir vaqtda baholashga misol keltirilgan.

1. Matematika fanining biror bo'limida o'tilgan mavzularga doir savollar tanlanadi.
2. Doskaga ikki tomondan bir xil chiqib boriladigan pog'onasimon chizma chiziladi, har bir pog'onaga savollar yoziladi.
3. Har ikki tomondagi pog'onalar soni teng bo'lishi kerak.
4. Ikki o'quvchi doskaga chiqariladi va topshiriqni bir vaqtda bajarishga kirishadi.
5. Har ikki o'quvchiga berilgan topshiriqlar o'tilgan mavzu yuzasidan bir-biriga yaqin hamda o'xshash bo'lishi kerak.
6. Topshiriqni birinchi va to'g'ri bajargan o'quvchi nisbatan yuqoriroq baholanadi.
7. Baholash tartibi pog'onalar soniga qarab quyida keltirilgan mezon asosida amalga oshiriladi.

Pog'onalar 9 ta bo'lsa: 8-9 ta to'g'ri javobga a'lo,, 6-7 ta to'g'ri javobga □yaxshi,, 5 ta to'g'ri javobga qoniqarli, baho qo'yiladi.

Mantiqiy masalalar daqiqasi.

O'qituvchi har bir darsni o'quvchilarga bitta mantiqiy masala berish bilan boshlashi mumkin. Natijada, o'quvchilarning diqqati jamlanadi, mantiqiy fikrlash darajasi oshadi, fanga qiziqishi ortadi va har kungi darsni qoldirmaslikka harakat qiladi. Quyidagi masalalarni taqdim qilish mumkin.

1. To'rtta 2 raqami hamda to'rtta arifmetik amal, qavslar yordamida 0; 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10 sonlarini hosil qilish mumkinmi?

2. O'tgan yili Sarvar 10 yoshda edi. Indinga (ertadan keyin) 13 ga to'ladi. Shunday bo'lishi mumkinmi?

3. Ona stolga pechenielarni qo'yib, o'g'illariga maktabdan qaytgach pechenielarni teng bo'lib olishlarini tayinladi. Birinchi bo'lib maktabdan Anvar qaytdi. U pechenielarni uchdan birini olib ketdi. Keyin Sarvar qaytdi, u stolda turgan pechenielarning uchdan birini olib ketdi. Oxirgi bo'lib Sardor qaytdi va qolgan pechenielarning uchdan birini oldi. Agar Sardor 4 ta pecheniye olgan bo'lsa, stol ustida dastlab nechta pecheniye bo'lgan?

Yuqorida keltirilgan metodlarda o'quvchilar yakka holda, sherik bilan va guruhlarda ishlashni ham o'rganib boradilar. Bu esa o'quvchilarda kirishimlilik, mustaqil ishlash, hamkorlikda ishlash kabi muhim jarayonlarni ham shakllantiradi. Ushbu interfaol metodlar orqali o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqish va e'tibor ortadi. Shu bilan birgalikda, biz pedagoglar shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilarni zeriktirmaslik, darsda faolligini oshirish uchun avvalo yaxshi do'stona muhitni yaratishimiz eng muhim omildir. Har bir yosh avlodga ma'sul ekanligimizni hech qachon unutmaylik.

Matematika o'qitish metodikasi o'quv predmeti sifatida:

Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo, kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Umumiy metodika boshlang'ich sinf matematikasining mazmunini va tizimlilikini aks ettiradi, har bir

bo'limni o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi. Xususiy metodika matematika o'qitishning asoslangan metodlarini va o'qitish formalarini, shuningdek, o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'lumki, o'qitish tarbiyalash bilan o'zaro mustahkam bog'liqdir. Ushbu metodika o'qitishni tarbiyalash bilan qo'shib olib borish yo'llarini o'rgatadi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog'liqdir:

1) o'qitish asosi bo'lgan matematika bilan; 2) pedagogika; 3) psixologiya; 4) boshqa o'qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat ...). Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish kursi o'quv predmetiga aylangan.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining o'qitish vazifalari:

- a) ta'lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga osbirishi;
- b) nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi;
- d) o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi;
- e) ta'limni insonparvarlashtirishi;
- f) matematika o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadr-qimmatini, bir-biriga hurmat kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko'rsatib berishi;
- g) o'qitish metodikasi I-IV sinflar matematikasining davomi bo'lgan V-VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog'lab o'qitishdan iborat. Boshlang'ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo'yilgan "o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, kasb-hunarga qiziqtirish, kasblarni ongli tanlashga o'rgatish" kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat. Shunday qilib, boshqa bar qanday o'quv fani kabi matematika boshlang'ich kursi o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi; 2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi; 3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarga ma'lum dasturi asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi,

ulami matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim; b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarni tarkib toptirish lozim bo'ladi. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida nutq madaniyatini to'g'ri shakllantirish, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak; d) o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida haqiqatlarini bilishga o'rgatish. Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: a) o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; b) o'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir; d) o'quvchilarda matematik tafakkuri va matematik madaniyatni shakllantirish.

Matematika darslarida o'rganiladigan ibora, amal belgilari, tushuncha va ular orasidagi qonuniyatlar o'quvchilarni atroflicha fikrlashga o'rgatadi. .. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o'rgatish, o'quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o'rgatish;

b) matematika o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning jadvallar va

hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirimga qaratilgan;
d) o'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish.

O'quvchilar, imkoni boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishni qilishlari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishga o'rganishlari kerak. O'qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o'quvchilardan og'zaki so'ralish; nazorat ishlari. va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, o'tkazish kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va h.k. bog'liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan. Boshlang'ich maktabda matematika o'qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o'quvchilarning yakka (individual) yozma so'ralish o'tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba'zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o'zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang'ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun mo'ljallangan) o'qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko'proqdir. Boshlang'ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tanlangan g'oyaga ko'ra ma'lum mavzu bo'yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o'quvchining bu mavzuni faqat o'zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to'la aniqlangan darajada o'zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi. Amaliyotda o'qituvchilar ko'pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san'atkorona tuzilgan bo'lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sarmahsul va chuqur g'oyalar amalga oshirilmasin, ular

baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas. Shunday qilib, didaktik materiallarni o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasini nazorat qilish usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, mazkur o'qituvchi uchun eng yaxshi usul bo'lishi mumkin. Shu sababli, didaktik materiallar o'qituvchini o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bikbayeva N.U va boshqalar “Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi , - Toshkent.: O’qituvchi, 2014 bet.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. □ Qarshi. Nasaf. 2000.
3. Tolipov O’.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Monografiya. Toshkent: □Fan,. 2006. 11. Rahimov D. Burchak va uchburchak bissektrisalarining farqi nimada? □Ma’rifat, gazetasi, 4 anrel 2012 yil. 27-son.
4. A’zamov A, Yosh matematika qomusiy lug’at,- Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati, 2014
5. Olimov B. Ikki ilg’or usul. Ma’rifat, gazetasi, 17-oktabr 2012 yil. 83-son.